


**O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI**  
**(E.Vohidov va O‘.Hoshimovlarning tavalludiga bag‘ishlangan)**

**RESPUBLIKA ILMIIY-AMALIY ONLAYN ANJUMAN**

2021-yil, 27- oktabr, *Andijon*





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLYIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI  
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB  
MASALALARI**

**(E.Vohidov va O‘.Hoshimovlarning tavalludiga bag‘ishlangan)**

**RESPUBLIKA ILMYIY-AMALYIY ONLAYN ANJUMAN**

**M A T E R I A L L A R I**

**Andijon – 2021**



## MUNDARIJA:

Andijon davlat universiteti rektori A.S. Yuldashevning Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya ishtirokchilariga tabrik soʻzi.....	5
Эргаш Очилов. Эркин Воҳидов ижодида Алишер Навоий анъаналари .....	7
Мамадов Ҳомиджон, Файзуллоев Бахтиёр. Эркин Воҳидов шеърлярида поэтик метафора.....	13
Шахло Ҳожиева. “Нидо” достонида қаҳрамон руҳиятининг бадиий тасвири.....	19
Абдуллоев Олимжон Нусратиллоевич. Эркин Воҳидовнинг пейзаж шеърлярида ватан тасвири.....	26
Эрмухамедов Абдусамад Норматович. Эркин Воҳидовнинг поэтик маҳорати.....	31
Сатторов Ўқтамали Аббосович. Эркин Воҳидов шеърлярида тажнис.....	36
Nasirov Azimidin Normamatovich. Oʻtkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romanida ruhiyat ifodasi.....	44
Баҳор Тўраева. “Икки эшик ораси” романининг структур таҳлили.....	50
Каримова Санобар Мирзаевна. Эркин Воҳидов ижодида гўзалларнинг бадиий тасвири.....	56
Adizova Nilufar Istamovna. Erkin Vohidov dostonlarida mifologemalar milliy oʻzlik ruhini ifoda etuvchi muhim birliklar sifatida.....	61
Раҷаматов Давлат Абдувалиевич. Эркин Воҳидов ижодида тарихийлик ва миллийлик.....	67
Мўминов Бегали Юнусович. “Нур борки, соя бор” романида зиёли образи ва ижтимоий муҳит.....	71
Oʻrmonova Dilfuzaxon Mamasaliyevna. Erkin Vohidov sheʼriyatida semantik kashfiyotlar.....	75
Komilova Shohida Roʻziyevna. Erkin Vohidov sheʼriyatida falsafiy mushohadalar rang-barangligi.....	78
Husanova Mashhura. Erkin Vohidov ijodida antonimlar fikrni yorqinlashtiruvchi uslubiy vosita sifatida.....	81
Moxira Mirsanova. E.Vohidovning adabiy - tanqidiy qarashlari xususida.....	87
Бобокулов Ойбек Абдикодирович. Использование эмоционально выразительных слов в повести Уткира Хошимова «Дважды два пять».....	91
Абдурахмонова Рўзихон. “Рухлар исёни” достонида ижодкор шахс образи.....	95
Dilnoza Mamanova. Tarix badiiy asar nigohida.....	98
Nazarova Hilola Gʻulomjonovna. Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror”	



қўлларининг булутсимон оқлиги ва ҳаракатчанлиги билан кўзларини яширади. Гўёки тун булутлари юлдузларни ўз қаърига яширгани каби.

Умуман олганимизда, биз Эркин Воҳидов ва Чустий ғазалларидаги раққоса тасвирини бадиий тарзда ифода этилишини таҳлил қилиш орқали анъанавий ва янги кашф этилган бадиий кашфиётларга диққатимизни тортишга ҳаракат қилдик. Шу билан бирга шоирларнинг тасвирий услубининг ўзига хос томонларини қисқа бўлса ҳам ёритишга интилдик. Ғазалларнинг бутун ҳолатидаги таҳлилидан йироқмиз. Аслида, бир бутун ҳолдаги ғазаллар таҳлили санъаткор маҳоратини белгилашда самарали натижалар беради. Бизнинг мақсадимиз эса услубий бадиий ифода ҳақида оз бўлса-да маълумот бериш бўлганлиги сабабли олинган мисоллар билан чегараландик. Барча санъаткор ижодкорлар каби Эркин Воҳидов ва Чустийнинг шеърий асарларида ҳам бадиий поэтик санъатининг гўзал ва бетакрор намуналари ўрин олган. Уларнинг воситасида муайян ижтимоий-ахлоқий ғояларни жуда ёрқин бўёқлар билан жонлантириш имкониятига эга бўлишган. Улар яратган асарлар ёш шоирлар учун бадиий маҳорат мезонлари бўлиб хизмат қилишига имонимиз комилдир.

#### **Адабиётлар:**

1. Э.Воҳидов. Сайланма. Учинчи жилд. Умрим дарёси. “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти. Т., 2001 й. 38 б.
2. Воҳидов Эркин. Муҳаббат.-Тошкент. “Адабиёт ва санъат”, 1981.
3. 2.Воҳидов Эркин. Сайланма. Икки жилдлик. 1-жилд.-Тошкент. “Шарқ”, 2000.

**Erkin Vohidov dostonlarida mifologemalar milliy o‘zlik ruhini ifoda etuvchi muhim birliklar sifatida**

**Adizova Nilufar Istamovna  
BuxDU filologiya fakulteti  
o‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi**



**Kalit soʻzlar:** til, maʼnaviy boylik, madaniyat, lingvomadaniyatshunoslik, ifoda imkoniyatlari, madaniyat fenomeni, milliy mentalitet, mifologema, arxitep, maʼnaviy qiyofa, millat ruhi.

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada til hodisalarining madaniyat fenomeni sifatidagi ahamiyati mifologemalar misolida tahlil etilgan. Har qanday lisoniy birlik, nutqiy ifodalar muayyan bir millatga xos boʻlgan xususiyatlarni ifoda etadi. Maqolada, ayniqsa, badiiy matnlarda muayyan maqsadlarda qoʻllanuvchi lingvokulturemalar ijodkorning badiiy tafakkur tarzini ifoda etuvchi, millat qiyofasini namoyon qiluvchi muhim vosita ekanligi Oʻzbekiston Qahramoni, Xalq shoiri Erkin Vohidov dostonlari misolida yoritib beriladi.*

Lingvomadaniyatshunoslik bugungi kunda muhim sohalardan biri sifatida taraqqiy etmoqda. Uning obʼyekti madaniyat va tilning oʻzaro aloqasi jarayonida, lisoniy va nutqiy birliklarning madaniyat belgisi sifatida tutashgan nuqtasida yuzaga chiqadi. U tilni madaniyat fenomeni, tashuvchisi sifatida oʻrganadi. Madaniyatni tildan foydalanuvchi kishilar yaratadi. Baʼzi millatlarda odatiy meʼyor, madaniy xususiyatni ifodalovchi etalonlar boshqa bir millat mentalitetiga mos kelmasligi mumkin. Masalan, sigir hindlarda muqaddas hayvon deb baholanadi, shuning uchun ularda sigirga goʻzallik ramzi sifatida qaraladi. Oʻzbek mentalitetida esa sigir salbiy etalon sifatida assotsiatsiyalanadi. Shuning uchun ham muayyan bir millatda madaniyat belgisi deb qaraladigan ifoda birliklari boshqasi uchun oddiygina muloqot vositasi tarzida namoyon boʻladi.

Har qanday lisoniy birlik, nutqiy ifodalar muayyan bir millatga xos boʻlgan xususiyatlarni ifoda etadi. Ayniqsa, badiiy matnlarda muayyan maqsadlarda qoʻllanuvchi lingvokulturemalar ijodkorning badiiy tafakkur tarzini ifoda etuvchi, millat qiyofasini namoyon qiluvchi muhim vosita sifatida qoʻllanadi. Ular muqobilsiz leksik birliklar, lakunalar, mifologema, arxiteplar, paremiologik fondlar frazeologik birliklar, ramzlar, oʻxshatishlar, metaforik birliklar, nutqiy etiketlar kab til hodisalari zahirida yuzaga chiqadi. Shu kabi hodisalarning badiiy asarda milliy mentalitet, madaniy xususiyatlar, oʻzlik ruhini namoyon etishdagi ahamiyatini Erkin Vohidov dostonlarida aks etgan mifologemalar misolida kuzatamiz.



**Mifologema.** Bu mifning “bosh qahramoni”, uning muhim personaji yoki vaziyati bo‘lishi mumkin. Uning asosida, asosan, arxetip yotadi. Arxetip-kishilar ongida paydo bo‘ladigan va madaniyatda tarqaladigan turg‘un obraz. Non o‘zbek xalqi uchun qadim zamonlardan buyon qadrlanib kelingan ne‘mat sifatida ko‘zga, o‘pib, peshonaga surilgan. Uzoqroq yerga ketilsa, non tishlab ketish odatga aylangan, ushug‘ini qushlarga sepish, yerga tushsa, darhol, bosmasdan terib olish odatlari ham mifologik qarashlar asosida vujudga kelgan. E. Vohidov ijodida ham xalqimiz azaldan qadrlab kelgan, e‘zozlagan, ko‘ziga surgan, rizq-nasiba manbai sifatida hech narsa bilan qiyoslay olmaydigan **non** arxetipi ko‘p uchraydi:

Ko‘k jildimda alifbe va bir burda **non**,

Birinchi bor qadam qo‘ydim maktab tomon. [3,35]

Yozibsiz, pok so‘mdan **non** isi kelar,

Nopok milliondan qon isi kelar. [3,144].

**Kulgi** o‘zbek millatining milliy-madaniy qiyofasini, o‘ziga xos xarakter jihatlarini aks ettiruvchi hodisalardan biri sifatida baholanadi. Oiladagi yoshi ulug‘ kishilar qattiq ovoz chiqarib kulishga odobsizlik, yaxshilik keltirmaydigan hodisa deb qarashadi. Kulgiga mifologemalar asosida ikki xil qarash mavjud: ertaklar, miflarda qah-qah urib kulish devlar, yalmog‘iz, odamxo‘rlar, yomon timsollarga xos bo‘lsa, ovozsiz kulish, jilmayib qo‘yish payg‘ambarlar, avliyolarga xosdir. E.Vohidov dostonlarida “**qah-qah kulgi**” ifodasini lirik qahramonning nochor, baxtsiz holatini aks ettirish uchun qo‘llaydi:

Baxtsiz tanni quchgancha turib,

Ko‘z Yoshi-la yuvdi yuzini.

So‘ngra birdan U **qah-qah** urib,

To‘lqinlarga otdi o‘zini. [3,143]

Dunyo qayg‘usiga bo‘lmagan oshno,

**Qah-qah** urayotir, Barq urayotir.

Bilmas, boshi uzra bulutli samo

Chaqmoq chaqayotir, Guldurayotir. [3,28]



Xalqda tun sirli, qo‘rqinchli tafsilotlar bilan bog‘lanadi. Miflarda ham “*tun*” obrazidan voqealarning shiddatini, vahimasini oshirish, qo‘rquv uyg‘otish kabi badiiy maqsadlarni amalga oshirish uchun foydalaniladi. Shoir ijodida ham “*tun*”, asosan , miflardagi kabi qo‘rqinchni, fojialar, qayg‘u va alamli hodisalarni gavidalantirish vositasi sifatida qo‘llanadi:

Xayriyat deyman-u Va lekin yana

*Tun* kelgach, qaytadan Boshlanar dahshat... [3,101]

*Qaro tun* sochin yoygan

Bu xarobot yurtida

Sulton nomli bir zolim

Xalqni ezar beomon. [3,126]

“*Tuproq*”, “*Ona Yer*”, “*Yer*”, “*zamin*” kabi birliklar ham arxetipik obrazlar sifatida xalqimizning o‘ziga xos qarashlarini mujassam etadi. Tuproq azaldan o‘zbek xalqi uchun eng muqaddas narsa sifatida e‘zozlanadi. Uni, hatto, Vatan timsoli sifatida ko‘radi, uzoq safarlardan qaytganda tuproqni muqaddas bilib, ko‘zlariga surish, olisroq joyga ketayotganda undan bir siqim olib ketish odatlari ham o‘tmish bilan bog‘liq mifologik qarashlarni ifoda etadi. Ijodkor ham ushbu ifoda birliklarini Vatan timsoli yanglig‘ qo‘llaydi. Ularni Vatanning qanchalar qadrlig‘ ekanligini tasvirlash, uzoq o‘tmish voqealarini jonlantirish, ularga nazar solish kabi poetik maqsadlarini amalga oshirish uchun turli shakllarda qo‘llaydi:

Hayron bo‘lmang yana *Tuproq* ichidan

Zang bosgan dubulg‘a topib olsangiz,

Gumburlagan sado kelib turadi

*Yerning* yuragiga quloq solsangiz. [3, 103]

Eshit, ingrayapti *Ona-Yer*

Qo‘ltiqtayoqlarning zahmidan,

Bu *tuproq* yuragi poradir

Atom zontlarining vahmidan

Eshit, chorlayapti *Ona-Yer*,

Ko‘ksida olovli oh-faryod. [3, 44]



Qadim-qadimlardan buyon suv har bir tirik jon uchun bebaho hayot manbai sifatida qadrlanib, e'zozlanib keladi. Hozir ham borliqni usiz tasavvur etib bo'lmaydi. Qadimiy afsonalar, ertaklarda ham yurtga suv keltirgan qahramonlar behad ulug'langan, ular haqida dostonlar yaratilgan. Chashma, buloq esa suvning bitmas-tuganmas manbai, tiriklik belgisi sifatida miflarning muhim arxetipi sifatida tasvirlangan. Erkin Vohidov dostonlarida ham suvning xalqimiz hayotida tutgan o'rniga alohida urg'u berib boriladi. "*Chashma*", "*buloq*" konseptlari asosida tiniqlik, beg'uborlik, xotirjamlik, hamdardlik kabi qahramonlar kechinmalari bilan bog'liq holatlar va syujetni harakatga keltiruvchi hodisalar yorqinroq aks ettiriladi:

Dilin ochib Najot so'rgali,

Keldi Orzu *chashma* yoniga.

"Ko'rgil, *chashmam*, Parishon holim,

Bir barnoning bo'ldim shaydosi.

So'yla *chashmam*, So'yla, zilolim,

Ishq dardining bormi davosi? [3,130]

Ayt, Bo'laymi sevgingga iqrор,

Yo ishqimni tutaymi pinhon?

Shunda *chashma* Tilga kirdi-yu,

So'ylay ketdi chuldirab biyron:

"Ishq dard emas, Ishq saodat-ku,

Tutma also sevgingni pinhon!..." [3,130]

Shu bo'ldi-yu Og'ado'st har kun

Kelar bo'ldi *buloq boshiga*,

Tosh ortiga berkinib sekin

Boqar bo'ldi sohibi husn

Go'zal qizning ko'z-u qoshiga. [3,133]

Xalqimiz azaldan o'zi sevgan qahramonlarni go'zal qiyofalarda tasavvur qilgan va ular haqida afsonalar, ertaklar yaratishgan. *Suv parisi* ham ertaklar, afsonalar va rivoyatlarning asosiy qahramoni sifatida badiiy adabiyotda muhim o'rin tutadi. Zamonaviy adabiyotda ushbu obrazdan, asosan, favqulodda sodir bo'lgan yoki



rivoyatlarga asoslangan voqealarni jonlantirishda foydalaniladi. Muallif ham ushbu an'anaga ko'ra, "*Suv parisi*" konseptini go'zallik timsoli, g'ayritabiiy, mo'jizaviy vaziyatlarni gavdalantirish, afsonalarga xos jihatlarni aks ettirish vositasi sifatida qo'llaydi va xalqimiz uchun qadrlil bo'lgan an'analar, tasavvurlar, ma'naviy-madaniy qarashlarni ifoda etadi:

Oylar o'tdi Chopgan ohudek,

Bahor keldi qishning izidan.

Bir kun tunda Qo'lida go'dak

*Suv parisi* chiqdi dengizdan. [3, 143]

*Chashma* xuddi Ona ohudek

Ko'zda yoshi tirqirab qoldi.

*Suv parisi* Qo'lida go'dak

To'lqinlarga kirib yo'qoldi. [3,144]

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, tilda mavjud har bir hodisa ma'lum bir xalqning azaliy qadriyatlarini, an'analari, udumlari, tarixi bilan bog'liq muhim jihatlarni namoyon etishi bilan o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Birinchi Prezidentimiz I. A.Karimov ta'birlari bilan aytganda, "...har qaysi xalq yoki millatning tafakkuri, turmush tarzi, ma'naviy qarashlari o'z-o'zidan, bo'sh joyda shakllanib qolmaydi. Ularning vujudga kelishi va rivojlanishida aniq tarixiy, tabiiy va ijtimoiy omillar asos bo'lishini hammamiz yaxshi bilamiz. Shu ma'noda, xalqimizning turmush va tafakkur tarziga nazar tashlaydigan bo'lsak, boshqalarga hech o'xshamaydigan, ming yillar davomida shakllangan, nafaqat o'zaro muomala, balki hayotimizning uzviy bir qismi sifatida namoyon bo'ladigan bir qator o'ziga xos xususiyatlarni ko'ramiz.

Misol uchun, tilimizdagi mehr-oqibat, mehr-muhabbat, mehr-shafqat, qadriyat qimmat degan, bir-birini chuqur ma'no-mazmun bilan boyitadigan va to'ldiradigan iboralarni olaylik. Qanchalik g'alati tuyulmasin, bu iboralarni boshqa tillarga aynan tarjima qilishning o'zi mushkul bir muammo..."Haqiqatan ham, tilimizda aks etadigan shunday ifoda va birliklar borki, ular shunchaki chiroyli nutq vositasi emas,



balki ular xalqimizning asriy qarashlari, ma'naviy hayotining asosi sifatida yuzaga kelgan, tasavvurimizda muhrlangan qadriyatlar, an'analar ifodasidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. Toshkent. Ma'naviyat .2008.
2. Saidova M., Qo'ziyeva U. Lingvokulturologiya. Namangan-2017.
3. Воҳидов Э. Достонлар. G'G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent, 1973.
4. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2013.

## **ЭРКИН ВОҲИДОВ ИЖОДИДА ТАРИХИЙЛИК ВА МИЛЛИЙЛИК**

**РАЖАМАТОВ Давлат Абдувалиевич,**

**Хўжанд ДУ ДТМ ўқитувчиси**

**(Тожикистон)**

**Резюме.** Ушбу мақолада Ўзбекистон Қаҳрамони, ўзбек халқининг ардоқли шоири Эркин Воҳидов ижодидаги тарихийли ва миллийлик масалалари борасида мулоҳазалар билдирилган.

**Таянч сўз ва иборалар:** миллийлик, тарихийлик, миллий тафаккур, тарихий сиймо.

Эркин Воҳидов ўз ижоди билан замонавий ўзбек шеърятининг умумий оҳанги ва овозига оҳорийлик ва гўзаллик, жозиба ва жўшқинлик, салмоқ ва салоҳият, самимийлик ва миллийлик, кутилмаган ифода воситаларини кўшди. Эркин Воҳидов - ўз овози, услубига эга бўлиб, унинг услубига хос хусусиятлар тарихийлик ва миллийликдир.

Шоирнинг ижоди 50 - йиллардан бошлаб ҳар бир ўн йилликларда янги босқичга кўтарила борди. 50 - йилларда эпиклик ва ифодаларни моддийлаштириш, 60 - йилларда эса лирик майинлик ва куйчанлик босимлик